


“TASDIQLAYMAN”

**“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori**

 **F. Tojiyev**

2022-yil “__” _____

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e’lon joylashtirish to’g’risida)

2022 yil 22 iyun

Toshkent sh.

Sudyalar odobi kodeksiga ehtiyoj mavjudligi, sudlarning talab va takliflarini inobatga olgan holda nashr etish masalasini ko’rib chiqish va e’lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlash shartlari
va hujjatlari bo’yicha e’lon matni**

Tanlashga qo’yilayotgan xizmat turi:

Sudyalar odobi kodeksini o’zbek tili krill va lotin yozuvida hamda rus tilida chop etish.

Tanlash ishtirokchilariga qo’yiladigan talablar:

1. Nashr etish ishlarini buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Tegishli lisenziya va guvohnomaga ega bo’lgan, noshirlik faoliyatida kamida 3 yillik tajribaga ega hamda o’z texnologik bazasiga ega bo’lish;
3. Belgilangan vazifalarni g’olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan mahsulot (kodeks)ni 7 ish kuni davomida to’liq tayyorlab, “Buyurtmachi”ga topshirish;
4. Tanlash ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-tamoillarini amalga oshirish jarayonida korrupsiya ko’rinishlariga yo’l qo’ymaslik xususidagi ariza taqdim etishi;
5. Tanlashda g’olib chiqqan tashkilot (korxonada) bilan Markaz o’rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko’zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;
6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 8 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi.

Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma’lumot, uning moliyaviy holati haqida ma’lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga oid qiyosiy jadval).

Nashr etiladigan mahsulotning umumiy tavsifi:

Sudyalar odobi kodeksini krill, lotin yozuvi va rus tilida formati:
70x90-1/32, muqova qattiq, bumvinil zarli tisneniye va ichki sahifa oq-qora rang, 70 grammlig qog’ozni tashkil etadi.

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi tomonidan taklif etilayotgan kitoblar soni, hajmi, bosma tabog’i va narxi quyidagi jadval asosida tashkil etiladi.

№ t/r	Mahsulot nomi	Kitob soni (tiraj)	Hajmi (bet)	Bir nusxa narxi (so'm+QQS)
1.	Sudyalar odobi kodeksi	2000	96	28 000

Buyurtmachi nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. STIR:201 453 166, (71) 233-28-18

Tanlash taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: Tanlash g'olibi bilan Markaz o'rtasida shartnoma rasmiylashtirilgandan keyin 7 ish kuni.

Tanlash o'tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy (elektron talablar asosida).

Boshlanish muddati: 22.06.2022-yil

Tugallanish muddati: 01.07.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 01.07.2022 yil.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, ishlatiladigan mahsulotlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati, noshirlik sohasidagi tajribasi va sifat ko'rsatkichlari haqida ma'lumot.

- Komissiya tomonidan nashr etish ishlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;
- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlash g'olibi aniqlanadi.

Marketing, reklama va obuna bo'limi boshlig'i



F. Kuldashev

Rasmiy nashrlarni va yuridik adabiyotlarni tayyorlash va taxrir qilish bo'limi boshlig'i



Sh. Abdullayev

Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i



M. Yerdashev

Mehnatni muxofaza qilish va xo'jalik ishlari mudiri



A. Tursunov